

TA'LIM JARAYONINI GENDER YONDASHUV ASOSIDA TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK SHART-SHAROITLARI

Rahmatova Mahliyo Usmon qizi

Navoiy Davlat Universiteti San'at va sport fakulteti

Pedagogika nazariyasi va tarixi yunalishi 1-kurs magistranti

Annotatsiya. Maqolada ta'lim jarayonini gender yondashuv asosida tashkil etishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari yuqori sinf o'quvchilari misolida yoritilgan. Gender yondashuvining ta'lim tizimidagi ahamiyati, o'quvchilarning individual va gender xususiyatlarini hisobga olish zarurati ilmiy asoslangan. O'qituvchining gender kompetentsiyasi, gender stereotiplarini bartaraf etish hamda gender jihatdan qulay ta'lim muhitini yaratish masalalari tahlil qilingan. Gender yondashuvini amalga oshirishning asosiy tamoyillari va usullari ochib berilib, ta'lim samaradorligini oshirishdagi pedagogik imkoniyatlari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: gender yondashuv, gender kompetentsiya, yuqori sinf o'quvchilari, ta'limni individuallashtirish, gender stereotiplari, gender tengligi, pedagogik-psixologik shart-sharoitlar, ta'lim muhiti.

Аннотация: В статье рассматриваются педагогико-психологические условия организации образовательного процесса на основе гендерного подхода на примере учащихся старших классов. Обоснована значимость учета индивидуальных и гендерных особенностей обучающихся в современной системе образования. Проанализированы вопросы формирования гендерной компетентности учителя, преодоления гендерных стереотипов и создания гендерно благоприятной образовательной среды. Раскрыты основные принципы и методы реализации гендерного подхода и показаны его педагогические возможности в повышении эффективности обучения.

Ключевые слова: гендерный подход, гендерная компетентность, учащиеся старших классов, индивидуализация обучения, гендерные стереотипы, гендерное равенство, педагогико-психологические условия, образовательная среда.

Abstract: The article examines the pedagogical and psychological conditions for organizing the educational process based on a gender approach using the example of senior school students. The importance of considering students' individual and gender characteristics in the modern education system is substantiated. Issues of developing teachers' gender competence, overcoming gender stereotypes, and creating a gender-sensitive educational environment are analyzed. The main principles and methods of implementing the gender approach are revealed, and its pedagogical potential in improving the effectiveness of education is demonstrated.

Keywords: gender approach, gender competence, senior school students, individualization of education, gender stereotypes, gender equality, pedagogical and psychological conditions, educational environment.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimidagi tub o'zgarishlar, ta'limni individuallashtirish va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning ustuvor ahamiyat kasb etishi pedagogikada yangi metodologik yo'nalishlarni talab etmoqda. Ana shunday dolzarb yo'nalishlardan biri — gender yondashuv bo'lib, u o'quvchini nafaqat bilim oluvchi subyekt, balki ma'lum bir gender vakili sifatida shakllanayotgan shaxs deb e'tirof etadi. Ayniqsa, yuqori sinf o'quvchilari shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy o'zini o'zi anglash bosqichida bo'lganligi sababli, ta'lim jarayonida gender xususiyatlarini hisobga olish alohida ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik fan tomonidan gender yondashuvini o'rganish muammosi jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy transformatsiyalar, gender tengligi g'oyalarining rivoji hamda davlat ta'lim standartlarida ta'limni individuallashtirishga qo'yilayotgan talablar bilan bevosita bog'liqdir. Gender yondashuvining asosiy maqsadi — o'quvchi shaxsining potentsial imkoniyatlarini rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi an'anaviy gender stereotiplarini qayta ko'rib chiqish va har bir o'quvchining maksimal darajada o'zini o'zi anglashiga sharoit yaratishdan iborat.

Gender tushunchasining pedagogik-psixologik mohiyati. Pedagogikada “gender” tushunchasi inson shaxsida biologik va ijtimoiy-madaniy omillar sintezini ifodalovchi murakkab ijtimoiy hodisa sifatida talqin qilinadi. Gender faqat biologik jins bilan cheklanib qolmay, balki shaxsning ijtimoiy rollari, xulq-atvori, qadriyatlari va o‘zini identifikatsiya qilishi bilan chambarchas bog‘liqdir.

E.L.Xarlova genderni shaxsning asosiy tavsiflaridan biri sifatida ko‘rib, uning to‘rtta asosiy komponentini ajratadi:

biologik xususiyatlar;

gender stereotiplari;

gender me‘yorlari;

gender o‘ziga xosligi.

Mazkur komponentlar shaxsning ijtimoiy rivojlanish jarayonida o‘zaro uzviy aloqada namoyon bo‘ladi. Shu bois ta‘lim jarayonida gender farqlarini e‘tibordan chetda qoldirish o‘quvchining individual rivojlanish yo‘lini cheklashi mumkin.

Ta‘lim jarayonida gender yondashuvining ahamiyati. Tadqiqotchilar ta‘kidlaganidek, gender yondashuvi bolaning ichki dunyosini ochib berish, uning individual ma‘naviy-axloqiy rivojlanish yo‘llarini aniqlashga xizmat qiladi. Gender yondashuvi ta‘lim jarayonini tashkil etishda an‘anaviy modellarni qayta ko‘rib chiqishni, yangi o‘quv strategiyalari va texnologiyalarini ishlab chiqishni talab etadi.

O.A.Konstantinova va M.K.Ulanova ta‘lim tizimini gender va ijtimoiy munosabatlarni qayta ishlab chiqaruvchi kuchli institut sifatida baholab, gender yondashuvi asosida tashkil etilgan ta‘lim o‘quvchilarga o‘z individualligini namoyon etish imkonini berishini ta‘kidlaydilar. Yuqori sinf o‘quvchilari uchun bu yondashuv ayniqsa muhim, chunki ushbu bosqichda gender identifikatsiyasi nisbatan barqarorlashadi, kasbiy yo‘nalish va hayotiy rejalarning shakllanishi jadallashadi.

Gender yondashuvining pedagogik tamoyillari. Gender yondashuvi bir qator umumiy va maxsus tamoyillarga tayanadi. Umumiy tamoyillarga quyidagilar kiradi:

- tabiatga muvofiqlik tamoyili;
- madaniyatga muvofiqlik tamoyili;

- individual-shaxsiy yondashuv tamoyili;
- qiymat-semantik yo‘nalish tamoyili;
- o‘zini o‘zi aktuallashtirish tamoyili;
- tanlash va muvaffaqiyat tamoyili.

Maxsus gender tamoyillari esa: gender tengligi tamoyili; gender identifikatsiyasini shakllantirish tamoyili; gender muvozanati tamoyilidan iborat. Mazkur tamoyillar asosida tashkil etilgan ta’lim muhiti o‘quvchilar uchun gender jihatdan qulay va xavfsiz sharoit yaratadi.

Yuqori sinflarda gender yondashuvni amalga oshirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari. Yuqori sinflarda gender yondashuvni samarali amalga oshirish quyidagi pedagogik-psixologik shart-sharoitlarni talab etadi:

1. O‘quvchilarning individual va gender xususiyatlarini diagnostika qilish. Bu jarayonda o‘quvchilarning psixofiziologik xususiyatlari, miya yarim sharlarining funksional assimetriyasi, o‘rganish uslublari aniqlanadi.

2. Ta’lim mazmunini gender jihatdan qayta ko‘rib chiqish. O‘quv rejalari, dasturlar va darsliklar gender stereotiplaridan holi bo‘lishi, erkak va ayol obrazlarining teng va xilma-xil faoliyat turlarida namoyon bo‘lishini ta’minlashi zarur.

3. O‘qituvchining gender kompetentsiyasini rivojlantirish. Gender yondashuvni amalga oshirish o‘qituvchidan yuqori darajadagi gender madaniyati, tolerantlik va refleksiv fikrlashni talab qiladi. O‘qituvchi pedagogik muloqotda gender stereotiplarini mustahkamlovchi xatti-harakatlardan qochishi lozim.

4. Ta’lim jarayonini individuallashtirish va differensiallashtirish. O‘quvchilarga fanlarni individual sur’atda o‘rganish, qiziqish va qobiliyatlariga mos topshiriqlarni bajarish imkonini berish gender yondashuvning muhim shartidir.

5. Gender jihatdan qulay ta’lim muhitini yaratish. Bu muhit o‘zaro hurmat, teng munosabat va hamkorlikka asoslanishi, o‘g‘il va qiz bolalarning ijtimoiy tajribasini boyitishga xizmat qilishi lozim.

Gender yondashuvini amalga oshirish usullari. So‘nggi tadqiqotlar gender yondashuvini amalga oshirishning quyidagi asosiy yo‘nalishlarini ko‘rsatadi: o‘quv

jarayonini tashkil etish shakl va usullarini o'zgartirish; ta'lim mazmunini gender xususiyatlarini hisobga olgan holda yangilash; alohida va parallel ta'lim modellarini sinovdan o'tkazish.

Biroq ko'pgina olimlar I.S.Kon, I.S. Kletsina alohida ta'limdan ko'ra, qo'shma va teng huquqli ta'limning ijtimoiy jihatdan samaraliroq ekanligini ta'kidlaydilar.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, gender yondashuvi zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, u o'quvchining shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Yuqori sinflarda ta'lim jarayonini gender yondashuv asosida tashkil etish o'quvchilarning individualligini rivojlantirish, ularning potentsial imkoniyatlarini to'liq ochib berish va gender tengligiga asoslangan ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishga imkon beradi.

Shu bilan birga, gender yondashuvini amalga oshirishning yagona umume'tirof etilgan modeli mavjud emasligi ushbu yo'nalishda keyingi ilmiy izlanishlar olib borish zarurligini ko'rsatadi. Ta'limning barcha bosqichlarida gender yondashuvni izchil joriy etish shaxsning gumanistik yo'nalishini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мудрик, А. В. О полоролевом (гендерном) подходе в социальном воспитании / А. В. Мудрик // Народное образование. 2007. № 5. С. 175-181.
2. Харлова, Е. Л. Гендерный подход в воспитании в системе дополнительного образования детей / Е. Л. Харлова // Вестник Университета Российской академии образования. 2006. № 4. С. 95-98.
3. Вашетина, О. В. Гендерный подход в образовательных системах Великобритании и США : автореф. дис. ... канд. пед. наук: 13.00.01 / Вашетина Оксана Викторовна. Казань, 2011. 21 с.
4. Каменская, Е. И. Гендерный подход в педагогике : автореф. дис. ... д-ра. пед. наук : 13.00.01 / Каменская Елена Николаевна. Ростов-н/Д, 2006. 62 с.
5. Штылева, Л. В. Фактор пола в образовании : гендерный подход и анализ / Л. В. Штылева. М. : ПЕР СЭ, 2008. 316 с.

6. Sharifzoda, S. U. (2021). Pedagogical aspects of the process of formation of basic competencies using integrated learning materials. ISJ Theoretical & Applied Science, 06 (98), 760-763.
7. Угли, Ш. С. У. Т. (2020). Интегративный подход в формировании базовых компетенций учащихся в образовательном процессе. International scientific review, (LXXIII), 77-79.